



## O'ZBEK TILI ATTORLIK SEMALARINING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

**Xudoyqulova Mahbuba**

*Termiz davlat universiteti 1-bosqich magistranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'zbek tilida qo'llaniluvchi attorlikka oid leksemalar hamda ushbu so'z bilan uyadoshlik hosil qiluvchi so'zlar xususida so'z yuritiladi. Ta'kidlash lozimki, nutqimizda qo'llaniluvchi attorlikka oid leksemalar o'ziga xos leksik-semantik xususiyatlarga ega bo'lib, maqolamiz tadqiqi aynan ushbu mavzuga bag'ishlanadi. Attorlik doirasida qo'llaniluvchi so'zlar kelib chiqishi, ifodalagan ma'nosi, o'zida aks ettirgan xususiyatlari bilan bir-biridan tubdan farq qiladi.

**Kalit so'zlar:** attorlik, semantika, leksema, leksik-semantik ma'no, xususiyat, tilshunoslik, assotsiatsiya.

Barchamizga ma'lumki, o'zbek tili leksik-semantik jihatdan xilma-xil bo'lib, nutqimizda qo'llanilayotgan har bir ma'no tilimizning naqadar boy ekanligidan dalolat beradi. Leksik variantlilik, semantik uyg'unlik ona tilimizning mohiyatini yanada oydinroq ochib berishga xizmat qiladi. Biz ham ushbu maqolamizda o'zbek tilida qo'llaniluvchi attorlikka oid so'zlar hamda ularning leksik-semantik xususiyatlari to'g'risida fikr yuritishni niyat qildik.

Attorlikka oid so'zlar salmog'i tilimizda anchani tashkil etadi. Attorlikka doir leksemalar tadqiqi haqida so'z yuritishdan oldin ushbu so'zning mohiyatiga nazar tashlasak. Wikipedia onlayn ochiq lug'atida "attorlik" so'ziga quyidagicha ta'rif beriladi: "*Attorlik – bozorlarda pardoz-andoz, mayda ro'zg'or buyumlari bilan savdo qiluvchi do'konlar rastasi, qatori*".[6] Attorlik leksemasi "attor" asosi hamda "-lik" leksemasi asosida hosil qilingan bo'lib, demak, ushbu so'zning o'zagini "attor" tashkil qiladi. "Attor" so'zi etimologiyasi esa arab tilidan kirib kelgan bo'lib, "atir-upa sotuvchi kishi" ma'nosini ifodalab keladi[7]. Parva Tursunning "O'qituvchi" asarida ham attor leksemasining ma'noviy jihati yorqin aks etgandir: "*Xurjun ortilgan eshakni qishloqma-qishloq oldiga solib: "Farangi ip, iroqi sovun, oq saqich, qora saqich!" deb qichqiradigan attor ham bedarak yo'qoldi*". S. Nurovning "Narvoy" asaridagi ma'no ham aynan shundaydir: "*O'zboshimchalik bilan attorning qutisida yo'q bir noma'qulchilik qilib qo'ydi*" [7].

Ushbu leksema qo'llanilish vaqtiga ko'ra turli ma'noviy jihatlarni aks ettirishi mumkin. Ya'ni qadim davrlarda attorlik faoliyati kichik ro'zg'or buyumlari, ya'ni ip, igna, xina, oyna, saqich, atir-upa, taroq kabi kichik savdogarlar jamoasini aks ettirgan. Qolaversa bu so'z dori-darmon, giyohlar va ziravorlar sohasini ham o'zida jamlagan.




Mumtoz adabiyot asoschilaridan biri bo'lgan Farididdin Attorning asl ismi Abu Hamid bo'lib, „Attor“ („dorixonachi“) uning taxallusi hisoblanadi. Farididdin Attor tabib bo'lmagan, ammo kuchli dorishunos olim bo'lgani, giyolardan xushbo'y va dorivor damlamalar tayyorlay olganligi bilan el orasida mashhur bo'lgan. Shu o'rinda o'zbek xalq og'zaki ijodida o'zining katta o'rniga ega bo'lgan „Ravshan“ dostonidan olingan quyidagi parchaga e'tibor qaratsak:

*Bo'z bilan, alak bozori,  
Attorda **elak** bozori,  
Rang-bo'yoq, lok bozori,  
Paranji, jelak bozori,  
Qalpoq bozori qaysidir?*

Ushbu parchada dostonidagi Shirvon elining bozori haqida so'z boradi. E'tibor qaratadigan bo'lsak, attor bunda elak sotib o'tirgani bayon etilgan. Bundan ko'rinib turibdiki, doston voqealari bo'lib o'tgan davrda attorlar uy-ro'zg'or buyumlari, kundalik turmushda biz foydalanadigan kichik zaruratlar bilan shug'ullanuvchi soha ekanligi ta'kidlangan. Ko'p yillar davomida „attorlik“ atamasi juda ko'p ma'nolarda foydalanilgan.

Hozirgi davrga kelib bu terminning ma'nosida biroz o'zgarish yuzaga kelgan. Ya'ni magazin, parfyumeriya do'konlari, ixtisoslashgan galanteriyalarda olib boriladigan savdo faoliyatiga nisbatan attorlik leksemasi qo'llaniladi.

Attorlik leksemasi o'z uyadoshlariga ega hisoblanib, ularga misol sifatida quyidagilarni keltirishimiz mumkin:





Demak, attorlikka doir leksemalar , asosan, ma'noviy jihatdan pardoz vositalariga taalluqli hisoblanar ekan[3]. Endi ularning har birining semantikasi tadqiqiga to'xtalib o'tsak.

**Atir** – kelib chiqishi arab manbalariga borib taqaladi, ma'nosi “xushbo'y” demakdir. Wikipedia onlayn lug'atida ushbu so'zga quyidagicha ta'rif beriladi “*Atir – xushbo'y o'simliklarning guli, bargi, ildizidan yoki ba'zi hayvonlarning bezlaridan olinadigan moddalarning spirtdagi eritmasi*”. Atir leksemasi fonetik jihatdan egalik qo'shimchalari bilan birgalikda qo'llanilganda asosda tovush tushish hodisasi yuzaga keladi: **atrim, atring, atri**[6]:

*Shamollar ichida men ham bir shamol,  
Chechaklar atridan men ham sarmastman*[7].  
(Abdulla Oripov).

Bugungi kunda nutqimizda qo'llanilayotgan atir so'zida ma'no torayishi mavjud bo'lib, uning “hid” ma'nosini aks ettirish holatlari ham kuzatiladi:

*Atirgulim, atring qayga taraladi?  
Bog' ichida kimlar seni saraladi?*[7]

**Anbar** – ikki ma'noga , ya'ni asl hamda ko'chma ma'nolarga ega bo'lgan ushbu so'zlar asl ma'nosiga ko'ra mumsimon xushbo'y modda semasini ifodalasa, ko'chma ma'noda xushbo'y hid ma'nosini aks ettiradi. O'zbek xalq og'zaki ijodida anbar leksemasi ishtirok etgan o'rinlar mavjud:

*Qora anbar sochlaring,  
Sollanadi yor-yor*[7].

Mumtoz adabiyotimizda yorning sochlariga nisbatan anbar so'zi sifatlash tarzida keltiriladi, ya'ni lirik qahramonning anbar hidli sochlariga nisbatan ko'proq urg'u beriladi. Alisher Navoiyning “Badoye ul-vasat” devonida anbar asosli leksema ishtirok etgan o'rin ham mavjud hamda unda aynan yor sochlarining xushbo'y hidi diqqatimizni jalb qiladi:

*Qo'rkaramkim, bo'lmag'ay ozurda nozuk qomating,  
Egninga xush-xushki solmish chug'di anbarbor*[7].

Ya'ni nozik qad-qomating ozor topmasin deya qo'r qarman, go'zal yorning egniga anbar hidli soch o'rimi bor.

**Anbar** turli xil usullar bilan tayyorlanadi. Ayrim mutaxassislar uni turli xil o'simliklardan tayyorlasa, ayrim davlat olimlari uni kalmar balig'ining og'zi va tumshug'idan ajraladigan moddasidan olishadi. Insonlar bu moddadan turli kukunlar, dorivor malhamlar, chiroqqa quyiladigan moylar tayyorlashadi. Anbardan parfumeriya sohasida keng qo'llaniladi. Atirlarning hidini uzoq vaqt saqlab turishda



anbarning hissasi katta. Shuning uchun anbar qoʻshilgan atirlarning ifori uzoq vaqt ketmay turadi. „Mushku anbar“ deganda ham xushboʻy anbar nazarda tutiladi.

*Taralgay mushk ila anbar,  
Koʻchamdan jonon oʻtganda.  
Izida tuproq oʻlgay zar,  
Koʻchamdan jonon oʻtganda.*  
(Habib Saʼdulla)

**Mushk** – fors tilidan kirib kelgan ushbu soʻz „qora tusli, xush, isli narsa“ maʼnolarini yaqqol ifodalagan. Ilmiy jihatdan oʻtkir hidli moddalarga nisbatan qoʻllaniluvchi ushbu leksemaning qator nomlari mavjudligi bilan ahamiyatlidir: *ipor, ufor, muskus*[4]:

*Sochingdin chun oʻgʻurlar mushk xushboʻy,  
Qiludar band-band oni Xoʻtanda*[7].

Mushk turli xil xushboʻy giyohlar, kovrak ildizi, gulxayrilar mevasidan yoki hayvon yogʻlaridan tayyorlanadi.

*Sahar, subhi sodiqda mushk bir yon, mujgon bir yon,  
Tun pardasin tortsa gar, oy bir yon, osmon bir yon.*  
(Toʻra Sulaymon)

**Upa** – gigiyena va kosmetika maqsadida ishlatiluvchi xushboʻy va nihoyatda mayin kukun. *Upa* yuzni oqartirish uchun surtiladigan pardozi vositasi boʻlib, lugʻatlarda *moyupa, yogʻupa* shaklida ham uchraydi. Misol qilib aytadigan boʻlsak, Oʻzbekiston xalq shoiri Muhammad Yusufning oʻzining „Toʻy kechasi“ sheʼrida:

*Yuzga upa surmasdan, toʻlin boʻldi Zebijon,  
Oʻn sakkizga kirmasdan, kelin boʻldi Zebijon.*

-deya oʻn yil birga oʻqigan sinfdoshi Zebi toʻyida yuziga upa surmasa ham toʻlin oyday chiroyli kelin boʻlganini taʼriflab bergan.

**Elik** – ayollar yuziga suradigan qizillik, yuzga suriladigan qizil rangli pardozi buyumi. Yuzni pardozlashda upaning ustidan qoʻyiladigan, ikki chakkani qizartirish uchun ishlatiladigan qizil rangli pardozi buyumi. *Maʼnodoshi: gʻoza*

*Mardlar maydon chekib, rangin koʻtorib zaxmlar,  
Sizga yoʻq ul javhare, yuzga upo-enlik qiling.*

(Turdi Farogʻiy „Tor koʻngulluk beklar...“ gʻazali)

Attorlik leksemalari badiiy adabiyotda juda katta oʻrin egallagan. Gʻazallarda, sheʼrlarda, qolaversa badiiy asarlarda ham muallif oʻz qahramonini, oshiq oʻz maʼshuqasini sifatlayotganda yoki maqtayotganda attorlik leksemalaridan keng foydalanadi. Aynan attorlik leksemalari sababli ifodalanayotgan fikr, taʼriflanayotgan obraz goʻzal va tabiiy gavdalantiriladi. Yuqorida keltirilgan fikrlarni dalillar asosida yoritamiz:



*Surmadin ko'zlar qaro, qo'llar xinodan lolarang,  
G'ozadin yuzlarda tobu, o'smadin qoshlar tarang.*

Furqat qalamiga mansub „Surmadin ko'zlar qaro...” g'azalida oshiq o'z sevgilisining go'zalligini, pardozini yuksak ijodiy mahorat bilan qalamga olgan. Bu baytda qo'llangan attorlik leksemalarining leksik-semantik ma'nolarini keltirib o'tamiz:

**Surma** - turkcha „syurme” so'zidan olingan bo'lib, „surish”, „qoshlarni qoraytirish” degan ma'noni ifodalaydi. Qoshlarni, ko'zlarni bo'yash uchun ishlatiladigan qoramtir pardoz bo'yog'i. Surma faqatgina pardoz buyumi bo'lmasdan, balki ko'zni ravshanlashtirish, qosh va kipriklarni o'stiruvchi shifobaxsh modda hisoblanadi. Qadimda surmadan faqat zodagon ayollar foydalangan bo'lib, uni tayyorlash yoki boshqa o'lkalardan topib keltirish qiyin bo'lganligi sababli juda qimmat bo'lgan. Ammo, bugungi kun zamonaviy kosmetika sohasi surmadan foydalanish va uni tayyorlashdagi qiyinchiliklarga barham bergan. Biz bugun xohlagan do'kon yoki kosmetika magazinlaridan xarid qilishimiz mumkin. „O'rmonjon kuldi: –So'qir ko'zga surma... nima qilaszlar, nima qilasan aldab?” (Abdulla Qahhor „Qo'shchinor chiroqlari”)

*Yor surma qo'ysa yarashar,  
Ta'rifin keltirsam agar:  
Og'zi g'uncha,labi shakar,  
Bir zulfi tordan ayrildim.*  
(Mahtumquli)

**Xina** - darbendoshlar turkumiga oid qizg'ish gulli o'simlik, shu o'simlikdan tayyorlanuvchi bo'yoq. Xinadan qo'l, soch va tirnoqlarni bo'yash uchun foydalaniladi. Xina o'simligi gullash davrida uning barglari terib olinadi, qurutilib kukun holiga keltiriladi. Shundan so'ng bo'yoq tarzida tayyorlanadi. Qadim zamonlardan beri xina kosmetik va dorivor vosita sifatida xizmat qilib kelmoqda. Hindiston, Pokiston, Shimoliy Afrika va ko'plab arab mamlakatlarida an'anaviy tarzda tanani bezash uchun ishlatiladi.

*Ingichka bellaring tasma,  
Qo'lda xina, qoshda o'sma.*  
(„Erali va Sherali” dostoni)

**G'oz** - ayollar yuziga suradigan qizillik, elik. Yuzga suriladigan qizil rangli pardoz buyumi.

*Gapga tushmas tamizi yo'q bemaza,  
Suluoning betiga yarashar g'oz.*

- („Oysuluv” dostonidan)



*O'sma* – karamdoshlar oilasiga mansub, ko'kimtir, tuksiz, okki yillik o'simlik. Yovvoyi va madaniy holda uchraydi. Dastlab G'arbiy Yevropada nil bo'yog'i olish uchun ekilgan. O'sma barglaridan siqib olingan qora-yashil rangli suyuqlikdan ayollar qosh va ko'zlarini bo'yash uchun foydalanishgan. O'smani pardoqdan tashqari ko'zni ravshan qiluvchi, qosh va kipriklarni o'stiruvchi xususiyati uchun ham qo'yishadi. „*Uning hozirgina qo'yan o'smasi chakkasiga oqib tushgan edi*” (H. Nazir „So'nmas chaqmoqlar”).

*O'sma o'tini ekmoq*

*Meros qilgan enasi.*

*O'sma suvin ichgan qosh*

*Alqagaymish egasin.*

(Zuhra Qurbon)

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, attorlik doirasida qo'llaniluvchi uyadosh so'zlar ushbu faoliyat natijasi o'laroq yuzaga kelgan bo'lib, ularning har biri o'ziga xos ma'no va talqinga egadir. Attorlik leksemalarining tilimizda, badiiy adabiyotimizda tutgan o'rni juda balanddir. Ajdodlarimizdan qolgan boy ijodiy merosni ularsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Bu atamalarning ma'nolarini bir-biridan farqlash va o'z o'rnida to'g'ri qo'llay olish, har bir tilshunos va adabiyotshunosning vazifasi hisoblanadi. Ularning ba'zilarida konnotativ va dennotativ ma'no mavjud bo'lib, ba'zilarida hozirgi kunda ma'no torayishi mavjudligining guvohi bo'lishimiz mumkin.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Tursunov U. Hozirgi o'zbek adabiy tili. -Toshkent: O'zbekiston, 1992. 126-141- betlar.
2. Shoabdurahmonov Sh. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. -Toshkent: O'qituvchi. 1980. 110-118-betlar.
3. Mirtojdiyev M. O'zbek tilida polisemiya. -Toshkent: FAN, 1975. 29-45-betlar.
4. Ne'matov H., Rasulov R. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. -Toshkent: O'qituvchi, 1995. 32-36, 84-105-betlar.
5. O'zbek tili leksikologiyasi. -Toshkent: FAN, 1984. 255 – 293-betlar.
6. [www.wikipedia.org](http://www.wikipedia.org)
7. [www.google.com](http://www.google.com)